

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

MAVZU : BOSHLANG'ICH SINFDAN ERTAK O'QITISH METODIKASI

Hoshimova Shahnoza Ixtiyorovna

BuxDUPI 2 – bosqich magistri

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bolalar ijodkorligini shakllantirishda ertakning o'rni va roli tasnifi, tavsifi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini, shakllantirishdagi ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Folklor xalq og'zaki ijodi, paremik janr, so'z qadri, folklorshunos, bolalar adabiyoti ertak, matal, ushuk, cho'pchak bog'lanishli nutq.

Bugungi kunda adabiy ta'lim oldiga o'quvchi yoshlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarni puxta o'zlashtirishlari, ularning badiiy estetik didlarini shakllantirish va

rivojlantirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirish, har tomonlama yetuk shaxsning aqliy va ruhiy kamolotiga erishish, ongu tafakkurini o'stirish, mustaqil fikr

kishisini tarbiyalab voyaga yetkazish kabi muhim vazifalar qo'yilgan. Mazkur vazifalarni ado etishda adabiyot fani umumta'lim tizimidagi boshqa o'quv fanlari orasida salmoqli o'rinni egallaydi. Adabiy ta'limning bosh maqsadini ham sog'lom, ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash tashkil etadi. Bu maqsad va vazifalarni bajarishda o'zbek adabiyoti namunalari qatorida adabiy ertaklarning ham imkoniyatlari mavjud.

Adabiyot fanidan umumiy o'rta ta'lim maktablarining Davlat ta'lim standartlarida adabiy ertaklarni o'qitish-o'rgatish tavsiya etilgan. Ertak – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri, to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Mahmud Koshg'ariyning “Devoni lug'otit turk” asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi

Surxandaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal, Buxoro atrofida tuman va qishloqlarida ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak deb yuritiladi. Ertak hayot haqiqatining hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiiy jasorati



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarning yaratilishiga ko'ra yana bir turi – yozma ertaklar ham mavjudki, jahon adabiyoti, xususan, o'zbek yozma adabiyotining katta qismini tashkil etadi. Keyingi ikki-uch yuz yillikda frantsuz ertakchisi SHarl perro (1628-1703), nemis ertaknavislari Ernest Teodor Amadey Gofman (1776-1822), aka-ua Yakov Grim (1785-1863) va Vilgelg'm Karl Grimm (1786-1859) lar Vilgelg'm Gauf (1802-1877),

daniyalik Xans Kristian Andersen (1805-1875), angilyalik Oskar Uayld (1854-1900),

rus ertakchilari A.S.pushkin (1799-1837) ijodining roppa-rosa 10 yilini faqat bolalar uchun hikmatli hikoyalar va ertaklar yaratishga bag'ishlagan. L.N.Tolstoy (1828-1910), K.D.Ushinskiy (1824-1870) yozma ertakchilikni rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar. O'zbek yozma ertakchiligi ham katta tarixga ega. Jadid bobolarimiz Behbudiy, M.Abdurishidxonov, Fitrat, Avloniy, Hamza, Siddiqiy – Ajziy o'zlari tuzgan maktab darsliklari uchun ko'plab ibratli ertaklar yaratdilar. O'tgan asr o'rtalarida Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg", Sulton Jo'raning

"Zangori gilam", SH.Sa'dullaning "Ayyor chumchuq", "No'xat polvon", "Laqma it"

she'riy ertaklari, "Yoriltosh", "Afsona yaratgan qiz" ertak-pg'esalari, "Kachal polvon" ertak-qissasi mashhur bo'ldi. Adiblarimizning ertakchilik sohasidagi an'alarini keyinchalik X.To'xtaboev, A.Obidjon, T.Adashboev, O'.Imomberdiev kabi ertaknavis mualliflarimiz davom ettirdilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy olamini boyitish maqsadida xalq og'zaki ijodining namunalari bilan tanishtirib boriladi. Bunda, o'quvchilar yoshiga mos holda ertak va hikoyalar tanlanadi.

Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish formasi, bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilning ta'sirchanligi, ifodali vositalarning jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir Ertak xalq og'zaki ijodida eng keng tarqalgan janr bo'lib, ular kishilar hayotida uchraydigan oddiy hodisalar va fantastik sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri fantastik elementlar bilan qo'shib ketadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, „Davlat“, „Tuz haqi“, „Ovchi, Ko'kcha, Dono“, „Ilm afzal“ kabi ertaklarni ham



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

o'qiydilar. O'quvchilarni bunday ertaklarni o'qishga tayyorlash ilmiy-ommabop tekstlarni o'qishga tayyorlash kabi bo'ladi (kuzatish, ekskursiya, fan darslari), ertakni o'qish va tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Ertak ustida ishlashda bolalarni ertak o'qitishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi, ona tiliga muhabbatni tarbiyalaydi. 1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertaklar bilan birinchi tanishtirishda uni (agar ertak hajmi katta bo'lmasa) o'qituvchi aytib berishi mumkin. Yuqoridagilarni hisobga olganda, ertakni izohli o'qitish darsining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
- o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi;
- ertakni o'quvchilar qanchalik idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;
- ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish;
- ertakni atib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);
- ertakni aytish;
- umumlashtiruvchi suhbat;
- ma'lum vazifa bilan ertakni qayta o'qish

Farzandlarimiz maktabda qancha ma'lumotli bo'lsa, xalqimizning boy o'tmishi, ota-bobolarining vatan uchun qilgan buyuk ishlari haqida bilimlarga ega bo'lsagina yuqori texnologiyali iqtisodiyot shuncha tez rivojlanadi va shuncha ko'p ijtimoiy muammolar hal etiladi. Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi, desam butun xalqimiz bu g'oyani qo'llab-quvvatlaydi deb o'ylayman. Dahaqiqat, vatan ostonasi maktabdan boshlanadi. Muhtaram Prezidentimizning yuqoridagi fikrlariga nazar tashlasak, haqiqatdan ham o'quvchilar maktabga bilim olish uchun kelishadi. Jajji o'g'il-qizlarimiz endigina hayot ostonasi atalmish matabga – ilm maskaniga qadam qo'yishlari bilan maktab, ona vatan, ustoz, kitob, tabiat va boshqa tushunchalar bilan batafsil tanishish orqali ham boshlang'ich sinflardan ertaklar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yurtimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kelajak yosh avlodni har jihatdan yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalashni boshlang'ich sinfdan boshlashimiz kerak. Ma'lumki, kelajak yosh avlodimiz boshlang'ich ta'limda bilimlarni mustahkam egallasa, uning



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ertangi kuniga poydevor bo'lishi shubhasizdir. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda bolaga bilim berishda va badiiy olamini boyitishda ertak va hikoyalardan foydalanish samarali natija beradi. Bundan tashqari bolalar 4-sinfda „Davlat“ ertagini o'qiydilar. Bu ertak oddiy turmushga tegishli elementlarni tasvirlovchi ertakdir. Ertakda fantastika bo'lganligi uchun o'quvchilarni ertakni o'qishga taxminiy tayyorlashni talab qiladi. Ertakni o'qishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofni, tabiatni, borliq dunyoni qanday tasavvur qilishlari haqida suhbat o'tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi badiiy obrazlarni, ularning o'zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, xarakterlarini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi, desam butun xalqimiz bu g'oyani qo'llab-quvvatlaydi deb o'ylayman. Xulosa qilib aytganda Jajji o'g'il-qizlarimiz endigina hayot ostonasi atalmish matabga – ilm maskaniga qadam qo'yishlari bilan maktab, ona vatan, ustoz, kitob, tabiat va boshqa tushunchalar bilan batafsil tanishish orqali ham boshlang'ich sinflardan ertaklar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yurtimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kelajak yosh avlodni har jihatdan yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalashni boshlang'ich sinfdan boshlashimiz kerak. Ma'lumki, kelajak yosh avlodimiz boshlang'ich ta'limda bilimlarni mustahkam egallasa, uning ertangi kuniga poydevor bo'lishi shubhasizdir.

